



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 6 - mart

VI-59-55-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tuman hokimligi Axborot xizmati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-oktabrdagi 01-07/1-2195-son yig'ilish bayoni ijrosi, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2022-yil 10-martdagi VI-45-59-8-0-K/22-sonli qarori, Angor tuman hokimligi va fuqarolar o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, jamoatchilikka islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 22 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanidagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik va aholini xabardor qilish sohasidagi faoliyati yetarli darajada tashkil etilmaganligi e'tirof etilsin.

2. Quyidagilar:

- Angor tuman hokimligiga 2 ta xodimlardan iborat matbuot xizmati faoliyati 1-ilovaga muvofiq tashkil etilsin;

- ichki imkoniyatlar yetarli bo'lmagan hollarda, axborot xizmatlari uchun kerakli mutaxassislar shartnoma asosida jalb etilsin;

- matbuot xizmati xodimlariga tuman hokimligi xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari taqdim etilsin.

3. Tuman hokimligining tashkiliy-kadrlar guruhi (I.Mustaramov) bir hafta

muddatda:

- Tuman hokimligi Axborot xizmatini jurnalistika va axborot-texnologiyalari sohasida yetuk bilim va tajribaga ega bo'lgan kadrlar bilan to'ldirilsin;

- Axborot xizmati xodimlarining vazifalar taqsimoti ishlab chiqilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-son qaroriga asosan tuman hokimligining axborot xizmati rahbari:

- bir vaqtning o'zida tegishli hokimning Matbuot kotibi hisoblanib, axborot siyosati masalalari bo'yicha hokimning maslahatchisi maqomiga ega bo'ladi hamda mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlariga ko'ra hokim o'rinbosariga tenglashtirilishi;

- tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi yoki uning hududiy bo'limlari xulosasini inobatga olgan holda lavozimga tayinlanishi;

- har uch yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida attestatsiyadan o'tishi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

5. Quyidagilar tuman hokimligining axborot xizmatining asosiy vazifalari etib belgilansin:

- hokimlik faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, hokimlikning rasmiy veb-sayti, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- hokimlik haqida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

- axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, viloyat hokimligi axborot xizmati bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish;
- muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida tegishli hokimning chiqishlarini tashkil etish;
- tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida tegishli hokimlik faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- hokimlik to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida tegishli hokimlik rahbariyatiga axborot berib borish;
- hokimlik faoliyatiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

6. Tuman hokimligi moliya bo'limi (S.Kuchkarov) hokimlik axborot xizmatiga shartnoma asosida jalb etiladigan mutaxassislarning oylik ish haqi va boshqa majburiy to'lovlar uchun tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hamda qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag'lar ajratish chorasini ko'rsin.

7. Tuman hokimligining tashkiliy-kadrlar gurihi (I.Mustaramov)ga:

- Tuman hokimligi Axborot xizmati xodimlarining oylik ish haqlarini o'z vaqtida to'lash;
- axborot xizmatlarini zamonaviy moddiy-texnika vositalari, televizor, foto va video yozib olish vositalari, zarur dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlash hamda yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish imkoniyatini yaratish topshirilsin.

8. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorak yakunida** tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2023 yil 6 martdagi
VI-59-55-8-109-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari

OAV, veb-resurslar, ijtimoiy
tarmoqlar va jamoatchilik bilan
ishlash bo'yicha bosh mutaxassis

Foto va video tasvirchi
yetakchi mutaxassis

* Tuman mahalliy budjet mablag'lari hisobidan shtat birligi saqlanadi.

** Mutaxassislar shartnoma asosida faoliyat yuritadi.